

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Sh.Sh.Olimov*

*Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.*

*G.H.Usmonova*

*Buxoro davlat pedagogika instituti II bosqich magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, intellektual salohiyati yuqori bolalarning o'ziga xos tafakkur tarzi, aqliy xususiyatlari mohiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** umumta'lim maktabi o'quvchilari, ta'lim-tarbiya, intellektual salohiyat, IQ, zakovat, mantiqiy tafakkur, islohot

**Аннотация:** В данной статье говорится об особенностях развития интеллектуального потенциала учащихся общеобразовательной школы, аспектах, которым следует придавать значение в формировании процесса развития интеллектуального потенциала учащихся. Также освещается сущность уникального образа мышления и психических особенностей детей с высоким интеллектуальным потенциалом.

**Ключевые слова:** учащиеся общеобразовательной школы, образование, интеллектуальный потенциал, IQ, интеллект, логическое мышление, реформирование.

**Abstract:** This article talks about the specific features of the development of the intellectual potential of students of a general education school, the aspects that should be given importance in the formation of the process of developing the intellectual potential of students. Also, the essence of the unique way of thinking and mental characteristics of children with high intellectual potential is highlighted.

**Key words:** general education school students, education, intellectual potential, IQ, intelligence, logical thinking, reform.

**Kirish.** Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga iqtisodiy jihatdan integratsiyalashuvini tezlashtirishda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Bu eng avvalo, uning xalqaro, ta'lim tizimi va xizmat bozoriga tezroq kirishiga bog'liqdir. Chunki ta'lim muassasalari jahon andozalariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasini hal qilishda belgilovchi hisoblanadilar. Bu esa mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini taqozo qiladi. Bu esa o'z navbatida o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq.

**Asosiy qism. Intellekt** (lotincha: intellects— bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

Intellektual salohiyatni rivojlantirishda bolalik davri muhim sanaladi. Bolaning intellekti faoliyat asosida narsalardan foydalanish tajribasi asosida shakllanadi. Obyektlarni bilish uchun subyekt ular bilan birga harakat qilishi kerak: tutib qolish, ushlab ko'rish, yaqinlashish, yo'q qilish, aralashtirish, taqqoslash va boshqalar. Barcha egallagan tajriba faoliyat chizmasi ko'rinishida saqlanadi. Faoliyat chizmasi – J.Piaje ta'limotidagi juda muhim tushunchalardan biridir. So'zning tor ma'nosida harakat chizmasi tushunchasi bu umumiy bo'lib, turli vaziyatlarda ko'p marta takrorlanuvchi harakatda saqlanadi. So'zning keng ma'nosida- harakat chizmasi- bu ma'lum bir darajadagi aqliy rivojlanish tuzilmasidir. Ma'lum bir bosqichda harakatning umumiy chizmasini rivojlanishini operatsiyaga (operant tuzilishga) aylanadi. Shuning uchun J.Piaje ta'limoti operatsional deb ataladi. Operatsiya- bu tizimda qaytariluvchan va guruhlariga ajratilgan ichki predmetli harakatdir.

Fikrlash faoliyatini tuzish hayot davomida shakllanib egallangan tajribaga ega bo'lib, rivojlanishning turli bosqichlarida sifat jihatdan farqlanadi. Assimilyatsiya va akkomadatsiya jarayonlari ontogenezdagi aqliy rivojlanishni uzluksizligi va ketma-ketligini ta'minlaydi, fikrlash harakatlarini (tuzilishi) tashkillashning o'ziga xosligi esa intellektning ajratilgan bosqichlarini aniqlaydi.

J.Piajega ko'ra, psixikani rivojlanishi – bu yetakchi intellektual ko'rinishlarini o'zgarishidir. Har bir bosqich boshqasining ustiga quriladi, ularning har biri keyingilarini shakllanishi uchun zarur, shuning uchun ularning (borish) kechish tartibi qayd qilingan va shunday belgilangan ularni yuz berish tezligi esa har xil bo'lishi mumkin.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston aholisining qariyb yarmini 18-yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, diqqat va javobgarlik bilan yondashilsa, bu kabi katta hajmdagi bo'lajak mutaxassislar orasidan 10-15 foizidan o'z kasbiy sohasining intellektual salohiyati yuqori ustalari, fan-texnika, ijtimoiy-ma'naviy sohaning ilg'or bilimdonlari, yetuk, ijodkor tadbirkorlar, liderlar chiqadi. Bu shunday haqiqatki, buni ko'rmaslik, millat taraqqiyotida buni hisobga olmaslik davlat miqyosida o'ylay olmaydigan mas'uliyatsiz mutasaddi xodim va pedagoglarda bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, keyingi o'n yilichida ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borildi. Shu amaliy ishlarning boshlanishi sifatida Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirishning quyidagi maqsadlari belgilab olindi:

- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;
- intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Bugungi kunda olib borilayotgan intellektual imkoniyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi yetarli darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, o'quvchilarning umumta'lim maktablaridagi tahsili davomida intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi. Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

O'quvchilarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda quyidagi holatlar e'tiborga olinishi kerak:

- 1)Intellektual imkoniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo'lishi kerak. Buning uchun esa psixologik hamda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kerak;
- 2)Intellektual imkoniyatni shakllantirishni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko'zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;
- 3)Intellektual imkoniyatni shakllantiruvchi tarbiya jarayonining dastlabki holatda ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak.

O'quvchi shaxsining shakllanish jarayoniga – jamiyatda qabul qilingan axloq normalari, xulq normalari, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni singdirish

texnologiyalarini yaratish ko'pgina jihatdan yakuniy natijani ta'minlashga xizmat qiladi.

Lekin qanday qilib bolalar orasidan bo'lg'usi liderlarni, biron-bir sohaga kuchli qobiliyatlarini ajratib olish mumkin? Qanday qilib maktabda ularning qobiliyat va imkoniyatlariga mos keladigan kasblarga yo'naltirish mumkin? Va nihoyat, qanday qilib ularning yuqori darajada rivojlangan intellektual salohiyat, layoqat va qobiliyatlarini ijtimoiy foydali, jamiyat tomonidan qadrlanadigan kasbiy sohalarga yo'naltirish mumkin? Bu savollar uzoqni ko'zlagan, davlat miqyosida, kelajagimiz haqida o'ylaydigan, iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotimizning yaqin 20-25 yilini ko'z o'ngida tasavvur qila oladigan pedagoglar uchun juda-juda muhimdir va aynan pedagoglar ularga javob bera oladigan darajada yo'l tutadilar. Chunki, aynan intellektual salohiyati yuqori bolalarni o'qitish, kasb-hunar o'rgatish oson, ular tez orada tegishli sohani mukammal o'rganadilar, atrofda gilardan tez orada o'zib ketadilar, katta yutuqlarga erishadilar, xalq xo'jaligida, ilm-fanda, ishlab chiqarishda, san'atda va boshqaruvda diqqatga sazovor ishlarni bajaradilar, o'zlariga o'nlab, yuzlab kishilarni ergashtira oladilar. Aynan intellektual salohiyati yuqori, zukko, zakovati baland o'quvchilarning ma'naviy dunyosi barkamol bo'ladi, ijtimoiy-siyosiy sohada o'z dunyoqarashiga ega bo'ladilar, mustaqil fikr yurita oladigan inson bo'lib kamol topadilar.

Mana shularning hammasi bolalar va yoshlar intellektini juda muhim, dolzarb ijtimoiy-pedagogik va ilmiy muammoga aylantiradi. Chunki intellekt ijtimoiy taraqqiyotning bitmas-tuganmas manbaidir, u nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi, balki ma'naviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ham boshida turuvchi rahnamodir.

Mutaxassislar va ota-onalar o'rtasida davom etib kelayotgan o'tkir munozaralarga qaramay, fan (genetika, fiziologiya, psixologiya va sotsiologiya) hamda amaliyot bolalar va o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari va bilimlarni o'zlashtirishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Zero, bolalar turli yosh bosqichlarida turlicha imkoniyatlarni namoyon qiladilar.

Shuni aytib o'tish kerakki, istiqloq yillarida intellektual salohiyati yuqori bolalar va yoshlarga bo'lgan diqqat bir necha marta ortdi, intellekti yuqori yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan jamg'armalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, aytish joizki, respublikada intellekti yuqori bolalar va yoshlarning ilmiy asoslangan, tizimli tanlovi, ta'limi va tarbiyasi yo'lga qo'yilganligini ham ko'rish mumkin. Intellektual salohiyatning o'ziga xos psixologik, tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlari, metodik ta'minoti, tanlovi, ta'limi va tarbiyasini ilmiy asosda, jahon standartlari doirasida bajarilishini ta'minlaydigan va boshqaradigan ilmiy-metodik tashkilotlar yetarli darajada emas.

O'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar maktabgacha va maktab ta'limi tizimini takomillashtirish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Shu sababdan respublikamizda ayrim o'quv muassasalari va jamoat tashkilotlari intellekt darajasi yuqori bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni olib borishmoqda.

Mustaqillikka erishilgach, mamlakatimizda intellekti yuqori bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Xususan, iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati, iste'dodi, intellektual salohiyatini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va tajriba orttirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Intellekti yuqori bolalar bilan ishlash tajribasi shundan dalolat beradiki, ular bilan ishlash usullari, ularga yetkaziladigan yordamning ko'lami va shakli intellektual salohiyatni tanish, to'g'ri tashxis qo'yishga bog'liq. Shu sababdan ham keng jamoatchilik orasida, o'qituvchilar va ota-onalar orasida tashviqot va targ'ibot olib borishning ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham ularning ongida intellektning tabiati, tarkibi, iste'dodli bolani aniqlash metodikalari, ularni rivojlantirish usullari haqida ilmiy-amaliy tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bolaning intellekti ba'zan uning ixtiyoriy, stixiyali ravishda boshlangan, hech kim majbur qilmagan bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishida namoyon bo'lishi mumkin. Bu bilan bola o'z ichki imkoniyatlarini tashqariga chiqargan, namoyon qilgan bo'ladi. Shubhasiz, har bir bola o'z intellekti har xil ko'rinishda, ba'zan esa hayratomuz darajada kishini lol qoldirishi mumkin. Lekin bolalardagi intellektning umumiy jihati shundaki, bola tashqi voqea va hodisalarni bilishga intilish, har xil faoliyatda o'zini sinab ko'rish, o'z imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonida biror-bir mexanizm yaratish, u yoki bu fikr yoki g'oya ustida uzoq vaqt ishlash, antiqa bir yo'nalishda ixtirolar qilish bilan mashg'ul bo'ladi. Intellektual salohiyati yuqori bo'lgan o'quvchining o'ziga xos, uni boshqalardan farq qilib turadigan jihati shundan iboratki, unda biror-bir faoliyat turiga yoki predmet va hodisalarga yondashuvda o'ziga xoslik, antiqalik, nodirlik mavjud.

Intellekti yuqori bola voqea-hodisalarning asl, o'zak mohiyatini tezda tushunib olib, uni bir og'iz so'zda, lo'nda va aniq ifoda eta oladi va shu sababli ikkilanishlarni, «chaynalishlarni» yoqtirmaydi, noaniqliklarga, mavhumliklarga nisbatan toqatsizlik bildiradi. Shuning uchun ham ular oddiy, hammaga tanish voqea-hodisalarga ham boshqacha nom bera oladilar. Haqiqatni boricha aks ettirib, ba'zan andisha qilmay, rostini, asl mohiyatini qisqa, lekin ma'noli so'zlarda ayta oladilar. Shuningdek, noaniqliklar, ta'lim yoki hayotdagi qiyinchiliklar (muammolar) ularni ko'proq o'ziga jalb etadi. Aynan shunday paytda murakkablikdan ko'pchilik odamlarning qochishi mumkin bo'lsa, IQ yuqori bolalar murakkab masalalarni yechishdan zavqlanadi, uning

uchun qiziq bo'lgan murakkab, qiyin masalalarni, vaziyatlarni izlaydi, uning g'aroyib, sirli hodisa va voqealarga, axborotlarga diqqati kuchayadi, ko'pchilik kishilarning hayoliga ham kelmaydigan nodir axborotlar bilan qiziqadi, ularni to'playdi, tartibga soladi. Yoshi va ma'lumotiga qarab intellekti yuqori bola o'zi o'rgangan, ba'zan g'aroyib, sirli yoki hayotiy murakkab voqealarni tushuntirishga, ularning ichki mexanizmlarini anglashga, sabab va oqibat aloqalarini o'rnatishga intiladi, ba'zan esa uzoq vaqtlar davomida bir muammo ustida tinim bilmay mashg'ul bo'ladi, haqiqatni izlaydi.

Intellektual salohiyati yuqori bo'lgan bolalarga muayyan irsiy imkoniyatlar tabiatan berilgan. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 12-13% bolalarda intellektual iqtidor ko'rsatkichi o'rtachadan yuqori bo'ladi. Bu umumiy ko'rsatkich hisoblanib, texnik, musiqiy, jismoniy, adabiy va boshqa ko'rsatkichlar qo'shib hisoblaganda 30-32 foiz bolalarda intellekt ko'rsatkichi o'rtachadan yuqori bo'ladi. Aksariyat, yuqori intellekt egalari muloqot va faoliyatga tez kirishib ketadilar, harakatchan, g'ayratli, nekin, mulohazali, farosatli bo'ladilar, lekin hamisha ham iste'dodlilarni faqat ijobiy xatti-harakat va ideal darajadagi xulq-atvor egalari, ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lib, barchaga o'rnak ko'rsatadiganlarning ichidan qidirish shart emas.

Bolada intellekt darajasini aniqlash, uni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish masalasi insoniyat uchun mutlaqo yangi masala emas, bu fikr bundan qariyb ikki ming yil avval Konfutsiy tomonidan ilk bor aytilgan edi. Qadimgi Xitoyda esa bolalarda intellekt darajalarini aniqlash uchun mantiqiy tafakkur darajalari, ijodiy fantaziyasi, husnixatdagi iqtidori, she'riy va nasriy asarlar yozishi kuzatuv va maxsus testlar yordamida aniqlangan, qadimgi grek faylasufi Aflotun (Platon) layoqati kuchli bolalarni to'plab, davlat uchun foydali bilimlarni o'rgatishga majbur qilish kerakligini aytgan edi.

Demak, intellekt darajasini aniqlash va rag'batlantirish, uni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish g'oyasi uzoq tarixga ega.

Intellektual salohiyati yuqori bolalarning o'ziga xos tafakkur tarzi, ba'zan atrofdagilar uchun tushunarli bo'lmagan, hayratomuz aqliy xususiyatlari, shaxs sifatidagi xislatlarining boshqachaligi atrofdagilarning diqqatini o'ziga tortadi, g'ayri oddiy xatti-harakatlari sababli turli taxallus va nomlar qo'yadilar, ular ba'zan atrofdagilarga noqulaylik tug'diradilar, hattoki ularda turli e'tirozlar paydo qiladilar, kishilar orasida hatto ulardan qochib yuradiganlar, nafratlanadiganlar ham bo'lishi mumkin. Shu sababli intellekti yuqori bolalarni ilmiy jihatdan mukammal o'rgangan mutaxassislar uning xilma-xil belgilarini ko'rsata olishgan. Quyida chet el olimlari tomonidan aniqlangan intellekt belgilari keltirilgan:

- yuqori darajada shakllangan aqliy qobiliyatlar;

- yuqori saviyada shakllangan ijodiy xususiyatlar (haqiqiy, o'ziga xos tafakkur, nozik moslashuvchanlik, aniqlikka intilish);

- juda yaxshi xotira, o'tkir zehnlilik (tez o'zlashtira olish qobiliyati); yangiliklarga chanqoqlik, bilishga intilish, juda rivojlangan qiziquvchanlik;

- yuqori darajada o'zini boshqara olish, o'z-o'zini anglash, barcha faoliyat turlarida shaxsiy javobgarlikni his etish;

- o'ziga ishonch, mustaqil mulohaza yuritish va mustaqil qaror qila olish;

- o'ziga munosib (ba'zan yuqoriroq) ijobiy baho berish va boshqalar.

Ukrainalik bir guruh tadqiqotchilar (Y.Z.Gilbux va b.) intellektning boshqa belgilarini ko'rsatishadi:

-qo'yilgan masalani har tomonlama chuqur tahlil qilish orqali uning mohiyatini anglash qobiliyati;

-kelgusi xatti-harakatlarini rejalashtira olish, bashorat qila olish qobiliyati; kam ma'lumotlar bilan kifoyalanib, muhim xulosalarga kela olish; o'z maqsadlarini aniq va yaqqol tasavvur qilish; erishilajak natijalarining sifat mezonlarini to'g'ri anglay olish;

-bilish jarayonining yo'nalishi va maqsadga muvofiqligini uzluksiz nazorat qilish hamda yo'naltirish.

**Xulosa.** Mualliflarning fikricha, ushbu belgilarning bolada bo'lishi faqatgina intellekt haqida gumon qilish imkoniyatini beradi-yu, ammo uning shubhasiz mavjudligini isbotlamaydi. Bundan kelib chiqadiki, intellektual salohiyati yuqori bolaning xatti-harakatlari yuqorida keltirilgan belgilarning barchasiga bir vaqtning o'zida mos kelishi tamoman shart emas. Chunki inson xatti-harakati ijtimoiy muhit mazmuniga bog'liq holda juda xilma-xil bo'lib, ba'zan ziddiyatli hamdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (1-jild). – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Гильфорд Дж.П. Структурная модель интеллекта. Психология мышления. – М.: Прогресс, 2003. – 75 с.
3. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o'quv – tarbiya jarayoniga qo'llash. –T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 184bet.
4. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. // J. Xalq ta'limi. 1991, 1-son, 97-102 betlar.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ye – M / Ikkinchi jild. 5 jildli. A.Madvalievning tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E.Begmatov va boshqalar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 216-b.